
Oziq-ovqat tushunchasini ifodalovchi birliklarning o'zbek va ingliz xalqlari olamning lisoniy manzarasida aks etishi

G'ayratova Ra'no G'ayrat qizirgayratova80@gmail.com*Mustaqil tadqiqotchi,
Urganch davlat universiteti*

Annotatsiya

Ushbu maqola oziq-ovqat tushunchasini ifodalovchi birliklarning o'zbek va ingliz xalqlari olamining lisoniy manzarasida aks etishini tahlil qiladi. Muallif, insonning atrof-muhitni qabul qilishida til va madaniyatning o'rnini ta'kidlaydi. Har bir millatning o'ziga xos konseptual tushunchalari va ularning zamon ruhiga qarab o'zgarishi ko'rsatiladi. Oziq-ovqat tushunchalari, xususan, non va choy kabi mahsulotlar orqali milliy qadriyatlar, urf-odatlar va madaniy kodlar aks ettiriladi. Maqola, shuningdek, lingvokognitiv va lingvokulturologik yondashuvlar orqali oziq-ovqat bilan bog'liq lisoniy tushunchalarni o'rganadi va ularning ijtimoiy ahamiyatini ochib beradi. O'zbek va ingliz xalqlari o'rtasidagi farqlar, shuningdek, oziq-ovqat tushunchalarining madaniy kontekstda qanday aks etishi muhim ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot, oziq-ovqat tushunchalarining til va madaniyatdagi o'rnini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. Oziq-ovqat, inson hayotining ajralmas qismi bo'lib, uning ijtimoiy va madaniy hayotdagi roli hamda ahamiyati doimiy ravishda o'rganilishi zarur. Maqola, shuningdek, oziq-ovqat tushunchalarining tarixiy rivojlanishini, ularning xalqning madaniy merosidagi o'rnini va zamonaviy hayotdagi ahamiyatini ham ko'rib chiqadi. Oziq-ovqat tushunchalari orqali milliy identitet va madaniyatni saqlash, shuningdek, xalqaro aloqalar va globalizatsiya jarayonlarida oziq-ovqatning roli haqida ham fikrlar bildiriladi.

Kalit so'zlar

Oziq-ovqat tushunchalari, lisoniy manzara, konseptual tizim, lingvokognitiv, lingvokulturologik, milliy qadriyatlar, madaniyat, glyuttonik diskurs, non konsepti, choy, mehmondo'stlik

Отражение единиц, выражающих понятие еды, в языковой картине мира узбекского и английского народов

Гайратова Раъно Гайрат кизиrgayratova80@gmail.com*Независимый исследователь,
Ургенчского государственного университета*

Аннотация

В данной статье анализируется отражение единиц, представляющих концепт еды, в языковой картине мира узбекского и английского народов. Автор подчеркивает роль языка и культуры в восприятии человеком окружающей среды. Показаны конкретные концептуальные понятия каждого народа и их изменения в зависимости от духа времени. Пищевые концепции, в частности, такие продукты, как хлеб и чай, отражают национальные ценности, обычаи и культурные кодексы. В статье также рассматриваются лингвистические концепции, связанные с едой, посредством лингвокогнитивного и лингвокультурологического подходов и

раскрывается их социальное значение. Различия между узбекским и английским народами, а также то, как концепции еды отражаются в культурном контексте, важны. Это исследование способствует более глубокому пониманию роли пищевых понятий в языке и культуре. Пища является неотъемлемой частью жизни человека, и ее роль и значение в социальной и культурной жизни должны постоянно изучаться. В статье также рассматривается историческое развитие понятий о пище, их место в культурном наследии народа и их значение в современной жизни. Через понятия еды выражаются мнения о сохранении национальной идентичности и культуры, а также о роли еды в международных отношениях и процессах глобализации.

Ключевые слова

Концепты еды, языковой ландшафт, концептуальная система, лингвокогнитивная, лингвокультурологическая, национальные ценности, культура, глуттонический дискурс, концепт хлеба, чай, гостеприимство

Reflection of units expressing the concept of food in the linguistic worldview of the Uzbek and English peoples

Gayratova Rano Gayrat qizi

rgayratova80@gmail.com

Independent researcher,
Urganch state university

Annotation

This article analyzes the reflection of units representing the concept of food in the linguistic landscape of the world of the Uzbek and English peoples. The author emphasizes the role of language and culture in a person's perception of the environment. The specific conceptual concepts of each nation and their changes depending on the spirit of the times are shown. Food concepts, in particular, such products as bread and tea, reflect national values, customs, and cultural codes. The article also explores linguistic concepts related to food through linguocognitive and linguocultural approaches and reveals their social significance. Differences between Uzbek and English peoples, as well as how food concepts are reflected in the cultural context, are important. This research contributes to a deeper understanding of the role of food concepts in language and culture. Food is an integral part of human life, and its role and significance in social and cultural life must be constantly studied. The article also examines the historical development of food concepts, their place in the cultural heritage of the people, and their significance in modern life. Through the concepts of food, opinions are expressed about the preservation of national identity and culture, as well as the role of food in international relations and globalization processes.

Keywords

Food concepts, linguistic landscape, conceptual system, linguocognitive, linguoculturological, national values, culture, gluttonic discourse, bread concept, tea, hospitality

Kirish

Insonni o'rab turgan voqelik uning ongida o'sha jamiyat etnosi tomonidan ong osti tafakkuriga singib ketgan mavjud tushunchalar tizimi (konseptual tizim)da voqelanadi. Konsept – hissiyotlarda, emotsiya va tasavvurda, ishonch hosil qilishda, urf-odat, diniy e'tiqodda namoyon bo'ladigan hodisa, u til birliklari vositasida ifodalab beriladi.(Cherkashina, 2011). Har bir millat ongida o'ziga xos konseptual tushunchalar mavjud, ular zamon ruhiga qarab o'zgarishi, ba'zan esa eskirib, o'z ta'sirchanligini yo'qotishi mumkin. Ba'zi tilshunoslar tilning konseptual tizimini "olamning konseptual manzarasi" deb atashmoqda. Shuning barobarida mazkur istiloh umumiy olamning milliy lisoniy manzarasi fonida o'rganiluvchi muayyan tilga xos konseptlar asosida o'sha til tashuvchilari-ning olamning lisoniy manzarasini kashf etishiga xizmat qilishini ta'kidlashmoqda (Pimenova, 2011). *Olamning lisoniy manzarasi* nihoyatda keng tushuncha, xalqning etnomadaniyati, mifologiyasi, falsafasi, folklori kabilarni o'z ichiga oladi (Popova, 2007).

O'zbek tilshunosligida ham ushbu istilohning turlicha talqinlari mavjud. Xususan, N.Mahmudov o'z maqolalaridan birida olamning lisoniy manzarasi istilohini olamni bilish nazariyasini tadqiq etuvchi jahon tilshunoslarining bir qator izlanishlarida izchil tadqiq etilayotgan "antropotsentrik paradigma" tushunchasining ekvivalenti sifatida keltiradi. Rus tilshunosi V.A.Maslovaning nazariy qarashlariga tayanib antropotsentrik paradigma faqat kognitiv lingvistikanigina emas, balki lingvokulturologiyani ham, kommunikativ lingvistikani ham, etnolingvistikani ham o'z ichiga olishini ta'kidlaydi (Mahmudov, 2012). Yoki R.Shirinova o'z tadqiqotlarida olamning lisoniy manzarasining lisoniy aspektlarini tahlil qilar ekan, uning lisoniy tarkibi sifatida realiyalar, frazeologik birliklar, maqol va matallarni ko'radi (Shirinova, 2017).

Metodlar

Glyuttonik diskursni oziq-ovqat nomlari asosida o'rgangan olim G.Odilova esa *olamning milliy lisoniy manzarasi* terminini qo'llaydi hamda uni kengroq hodisa ekanligini, uning shakllanishida milliy madaniy tushunchalarni o'z ichida jamlagan konseptual sistema bilan bir qatorda tabiatning ham ta'siri mavjud ekanligini ta'kidlaydi. Zero, olam individ tasavvurida mikro va makroolamga bo'linadi. Insonning mikroolamiga u yashayotgan milliy jamiyat bevosita ta'sir o'tkazadi, shu asosda "milliy ong", "milliy qiyofa" tushunchalari yuzaga chiqadi (Odilova,2020).

Shuningdek, L.N.Gumilev ta'biricha, milliy qiyofani shakllantiruvchi asosiy unsur – tabiiy omil (Gumilyov, 2001). Darhaqiqat, tabiat insonning olam haqidagi tasavvuri konseptual tizimida to'liq aks etadi. Iqlim sharoiti, o'simlik dunyosi va hayvonot olami lisondan chiqayotgan har bir tushuncha va so'zda o'z aksini topadi. Inson ko'zi o'rgangan, doimiy muloqotga kirishgan tabiat hodisalari yoki jonivorlar og'zaki va yozma nutqda tasviriy vositalarning asosini tashkil etadi.

Har bir nutqiy faoliyat olamning milliy lisoniy manzarasini hosil qilishga xizmat qiladi. Ammo bu tasvir faqatgina bir millatga xos fikr va qarashlar, ma'naviy ong, urf-odatlar, etnogenez xarakterdagi tushunchalar mahsuli hisoblanadi. Har bir millat vakilining mikroolami uning millatiga xos olamning milliy lisoniy manzarasining ajralmas qismi hisoblanadi. Olamning milliy lisoniy manzarasi bir millatga xos bo'lsa-da, uning asosida umumiy va yagona *olamning lisoniy manzarasi* haqidagi tasavvur yotadi.

Olamning "milliy", "konseptual" yoxud "lisoniy" manzarasi mavjudligi haqida olimlarning fikr va qarashlari nihoyatda tarqoqligini kuzatdik. Bizningcha, N.N.Goncharovanning olam manzarasi va olam lisoniy manzarasiga bergan quyidagi ta'rifi haqiqatga yaqindir: "Olam – bu odam mavjud bo'lgan muhit. Olamning ongdagi akslanishi va

odamning olam haqidagi tasavvuri. Odamning olam haqidagi tasavvurlarining tilda qayd etilishi olamning lisoniy manzarasidir (Goncharova, 2012).

Yuqorida keltirilganidek, har bir nutqiy ifoda millatning olamning milliy lisoniy manzarasini hosil qilish barobarida umumiy va yagona olamning lisoniy manzarasi bilan uyg'unlashadi. Muayyan nutqiy faoliyat ma'lum bir millat kishisi ongida siyosiy olamni qanday tushunish bilan bog'liq konseptual tizim asosida shakllanadi. Shundan kelib chiqib ko'pgina olimlar o'z tadqiqotlarida olamni "Olamning siyosiy manzarasi" (Samarkina, 2011), "Olamning ilmiy manzarasi" (Stepin, 1994), "Olamning tibbiy manzarasi", "Olamning gastronomik manzarasi" (Olyanich, 2004), "Olamning frazeologik manzarasi" (Petrenko, 2008)larga bo'lib o'rganmoqdalar.

Mazkur olam tasavvurlari asosida esa nutqiy ifoda yotadi. Nazarimizda, bunday tadqiq asosli, sababi, muayyan nutqiy ifodaga tegishli tushunchalar milliy tafakkurdagi olamning milliy manzarasi xaritasida o'sha nutq chizgilari asosida hosil bo'lgan mikroolamni paydo qiladi. Shu mikroolamlar, turli yaxlit olamning milliy lisoniy manzarasini yuzaga chiqaradi.

Lingvistikada oziq-ovqat bilan bog'liq lisoniy tushunchalar tadqiqi "glyuttonik tahlil" deb ataladi. *Glyuttonik* istilohining o'zagi qadimgi fransuz va o'rta ingliz tillaridagi *glutonie*, lotincha *gluttire* – "yutish" so'zidan olingan, bu so'z asosi *gula* "tomoq" degan ma'noni anglatadi. *Glyuttoniya* istilohi oziq-ovqat jarayonini yaxlit holatda, ya'ni uni topishdan tortib, yarim fabrikatlarni qayta ishlash va iste'molga yaroqli mahsulot tayyorlashgacha bo'lgan jarayonni o'z ichiga oladi (Derjavetskaya, 2013).

Natijalar

Odam paydo bo'libdiki, oziq-ovqat – uning kundalik ehtiyoji, yashash uchun kurashishini ta'minlovchi asosiy vosita. Insoniyat evolyutsiyasining dastlabki pog'onalaridayoq individ har kuni yuzlashadigan fiziologik hodisaga aylanib

ulgurgan taom tayyorlash va uni iste'mol qilish jarayoni tildagi muayyan lisoniy "hudud"ni egallaydi. Har bir millatning olamning milliy lisoniy manzarasida "taom" konsepti alohida o'rin tutadi. Och odamning tafakkurida olam – iste'mol qilinadigan va iste'mol qilinmaydigan mavjudlik. Bu global kognitiv murojaat insonning maishiy olamni iste'mol qilish, sarflashga bo'lgan urinishi asosini tashkil qiladi (Olyanich, 2004). Yuqorida keltirganimizdek, zamonaviy tilshunoslikda og'zaki va yozma nutqqa tegishli leksik birliklarni kichik guruhlariga bo'lib tadqiq qilish keng yoyilmoqda.

Xususan, konseptual nuqtayi nazardan o'zbek tilida non konsepti eng qadimiy, eng ulug', eng noyob, eng tanqis, eng muqaddas ne'mat va u bilan bog'liq tushunchalar, qadriyatlar majmuini ifodalashi bilan alohidalik kasb etadi. Non konsepti zamirida o'zbek xalqiga xos mehmondo'stlik, mehnatkashlik, tantilik, o'ziga xoslik, soddalik kabi odamiylik xislatlari, o'zbekona urf-odatlar, an'analar bilan bog'liq qadriyatlar sirasi jamlanganki, bu o'z navbatida, bir qator lingvomadaniy xususiyatlarga ham ega. Nonga bo'lgan hurmat, ehtirom hissi va uni e'zozlash bilan bog'liq o'zbekona milliy qadriyat hamda an'analarning ildizlari qadimiy davrlardan beri avloddan-avlodga, asrlardan asrlarga o'tib kelmoqda. Bunday buyuk xislatlar qadimiy ma'naviy-ma'rifiy, madaniy merosimiz xalq og'zaki ijodi namunalari, xususan, afsona va rivoyatlar, matal va maqollar, diniy manbalar, yozma adabiyot namunalari asosida shakllangan. "Non to'liq bo'lsa, hayot to'liq" kabi an'anaviy ifodalar, nonning hayotiy ahamiyatini ta'kidlaydi va o'zbek xalqining qadriyatlarini aks ettiradi.

O'zbeklar uchun: non – muqaddas, ona, ro'zg'or, muqaddas – *onam yopgan nonlar*. To'kislik ramzi – *uyda bir tishlam non yo'q*; qadrli narsa – *"Yegani noni bo'lmaslik"* – o'ta nochor ahvol, non topolmaslik qo'rquvi: *"Bir qishloqda, qashshoq yashar edik, yegani nonimiz, ichgani suvimiz bo'lmas edi"* ("Qismat", Isajon Sulton); Non o'ta lazzatli, shirin, mazali,

to'yimli ne'mat, uning har bir ushug'i ham mazali va qadrlil: *Ayvonda cho'psavat. Cho'psavatda non. Juda shirin, suvi qochgani undan ham shirin* ("Qismat", Isajon Sulton); Non yegan joyga qaytib kelinadi: *"Toshkentning nonini yegan chumchuq Makkatullodan qaytib keladi"* (Xalq naqli); Non – mifologik taom: *Non hech qachon teskari qo'yilmagan, bir qo'llab non ushatilmagan. Har kim o'zi tishlagan nonini o'z rizqi-nasibasini qoldirmasligi ma'nosida oxirigacha yegan*; Non yangi hayotning muqaddimasi: *Keldi keldi, hali-hozircha eskichasiga non sindirib qo'ydik. Non sindirdilaringizmi? Ha-da, o'ylab o'tiramizmi. Sindirdik-qo'ydik* ("Otamdan qolgan dalalar", Tog'ay Murod); Nonning dasturxonda bo'lishi ko'ngilni to'q qiladi, non yo'qligi kayfiyatni buzadi: *Dasturxonda zog'ora nonmi, arpa nonmi bo'lgan kuni hammamizga bayram. Ko'pincha unisiyam bo'lmaydi, bunisiyam. Biroq tutmayiz, albatta, bo'ladi* ("Dunyoning ishlari", O'tkir Hoshimov)(Odilova, 2020).

Inglizlar uchun: non asosiy ozuqa vositasi, non ishlab topiladi, non tilab olinadi, kundalik tirikchilik uchun non topiladi. Non – tiriklik manbai. Yaratgan ayolni yubordi, u bir bo'lak non sindirdi. Qadimgi grekcha "sitos" bug'doy boshog'i, "non", "ovqat" degan ma'nolarni anglatgan. Gomerdagi *"eaters of bread"* (so'zma-so'z: *non yeguvchilar*) "bandalar" ma'nosida qo'llangan (Odyssey), *while to be alive is to eat bread* (so'zma-so'z: toki tirik bo'lish, non yeyishdir). *"To break bread" is a New Testament phrase for eating or feasting* (so'zma-so'z: "nonni sindirish" Bibliyaning, ikkinchi, yangi qismida "yeyish va xursandchilik qilish" deganidir. Bibliyaning birinchi qismida non "Bread" jom ma'nosida qo'llangan. *The Lord feeds the people with "bread of tears"* (Maykl Ferber, 2007) (so'zma-so'z: Yaratgan kishilarni "ko'z yoshlar noni" bilan siyladi.) *Breaking bread* – kim bilandir nonini bo'lishib yemoq, kim bilandir gina-arazni unutib yarashmoq.

"Non/bread" konseptini lingvokognitiv va lingvokulturologik nuqtayi nazardan o'rganish bugungi kunda milliy mentalitet, mafkura va

ijtimoiy qadriyatlarni anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. "Non" so'zi o'zbek xalqining turmush tarzida markaziy o'rin tutib, ma'naviy va moddiy madaniyatda keng qo'llanadi. Ushbu konseptni lingvokognitiv yondashuvda o'rganish, eng avvalo, so'zda ifodalangan konseptual ma'nolar tizimini aniqlash va tahlil qilishni talab etadi. Lingvokulturologik yondashuv esa "non" bilan bog'liq madaniy-ma'naviy kodlarni, urf-odat va an'analarni, tarixiy jarayonlarga xos voqeliklarni aks ettiradi. Bu ikkala yondashuv birgalikda "non"ning nafaqat lug'aviy, balki ramziy, kognitiv va madaniy ma'nolarini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi. Avvalo, lingvokognitiv nuqtayi nazardan "non" konsepti inson dunyoqarashida shakllanuvchi turli tasavvurlar, hayotiy tajribalar va milliy ongdagi umumiy "non" haqidagi tasavvurni o'zida jamlaydi. "Non" so'zi asosida vujudga kelgan metafora, metonimiya kabi lingvistik vositalar, shuningdek, turli iboralar va maqollarda nonning hayot manbai sifatidagi ahamiyati namoyon bo'ladi. Masalan, "non topmoq" iborasi nafaqat tirikchilik, balki mehnat, harakat va sa'y-harakat bilan bog'liqlikni aks ettiradi. Demak, "non" konsepti kognitiv modelda moddiy ta'minot, baraka, mehnat va hayotiy zaruratni ifodalaydi. Bunda "non" so'zi orqali shakllangan kognitiv xarita millatning umumiy tajribasini o'z ichiga oladi. Har bir millat o'zining hayotiy ahamiyatga molik obyektlariga alohida urg'u berar ekan, "non"ning nafaqat oziq-ovqat sifatida, balki inson ongida xavfsizlik, farovonlik va mustahkam hayot kafolati sifatida ham idrok etilishi aniq ifodaga ega bo'ladi.

Munozara

O'zbek milliy gastronomik olam manzarasida *oshxona, so'ri, xontaxta, ko'rpacha* kabilar o'zbek oilasidagi nutqiy faoliyatning o'chog'i hisoblanadi. Shu yerda kundalik glyuttonik faoliyat olib boriladi, glyutonnik kommunikatsiyaga kirishiladi. Mamlakatimizga mehmonga kelgan xorijlik o'zbekona lutf, oziq-ovqat nutqi bilan yuzma-yuz keladi. Bu jarayonda kommunikatsiya vositasi sifatida

choy asosiy o'rin tutishini anglab yetish uchun yuqorida sanab o'tilgan lingvomadaniy tushunchalardan xabardor bo'lishi kerak. Zotan "choy ichasizmi?" gapidagi choy glyuttonimi shunchaki birgina chanqoqbosdi ichimlikni anglatmaydi, balki "qorningiz ochmi?", "ovqat yeysizmi?" kabi ma'nolarni ham bildiradi. "Keling, choy ichamiz" gapi faqatgina choy ichish emas, balki ovqat yeyishga taklif ma'nosida ham qo'llanadi. O'zbekistonda choy xalq maishiy turmush tarzining an'anaviy bir bo'lagi, odamlar o'rtasida o'zaro munosabat vositasi, ko'pgina kasalliklar uchun dori-darmon, chanqoqbosdi ichimlik hisoblanadi (Odilova, 2020).

Shuning uchun ham choy o'zbek kishilarining tafakkurida quyidagicha assotsatsiyalanadi:

1. Chanqoq bosdi ichimlik: chanqaganda ichiladigan, hattoki yozning chillasida ham ichiladigan issiq ko'k choy.
2. Mehmondo'stlikning ifodasi: uyga mehmon kelganda nondan keyin dasturxonga tortiladigan eng asosiy mahsulot. Kishilar tanishini uyga taklif etish uchun "bir payola choy ichib keting" iborasini ishlatishadi.
3. Bosh og'rig'ini qoldiruvchi malham: bosh og'rig'anda ko'pchilik, ayniqsa, yoshi kattalar achchiq choy damlatib ichishadi.
4. Kelinlar odobining ifodasi. O'zbek madaniyatida choy uzatishning ham o'z odobi bor, ya'ni o'zbek oilalarida asosan kelinlar avval yoshi kattalarga, turgan holatda, chap qo'llari ko'ksida, o'ng qo'llari bilan choy uzatishadi.
5. Shunchaki suhbat chog'idagi ermak.

O'zbek xalqida mehmondo'stlikni ifodalovchi belgilar qatorida gastronomik belgilardan ko'p foydalanadilar. "Choy" dominant mehmonga taklif qilishning emblematic formulasi hisoblanadi. O'zbek xalqi turmush tarzidagi o'zaro aloqalarning tarixiy takomili jarayonida mehmondo'stlikning choy bilan bog'liq ayrim shakllari ham mavjud. Chunonchi, "Choyxona bazmi" – bir choynak choyni rezalab, do'stlar bilan suhbat qurib

hordiq chiqarish. "Kelinchakning qo'lidan choy" – yangi turmush qurganlarning mazkur oila hayotidagi dastlabki mehmon kutish marosimi. "Bir piyola choy"ga taklif mehmonnavozlik shakli bo'lib, do'stlarni choy bilan siylash. Barcha mehnat va bo'sh vaqtimiz ham u yoki bu tarzda choy ichish bilan kechadi: nonushtada choy ichamiz, mehmondorchiliklar bir piyola choydan boshlanib, choy bilan yakunlanadi. Do'stlarni, tanish-bilishlarni, hamkasblarni uchratib qolsak, "Choy quyib beraman", deb uyga yoki choyxonaga taklif qilamiz. Uyda yolg'iz qolsak, zeriksak ham choy damlab ichamiz (Mahmudov, 1993).

O'zbeklarda "choyga marhamat", "keling choy ichamiz", "bir piyola choy ustida", inglizlarda "come and have some tea", "Will you come to tea tomorrow?" kabi etiket ifodalar tushunchalari mavjud. Milliy taomimiz, libosimiz va boshqa milliyligimizni bildiruvchi ehtiyojdagi narsalar qatoridan choy ham milliy ichimlik sifatida o'rin olishga ulgurgan. Shuning uchun ham so'zlashuvimizda ichimlik yoki boshqa ma'nolarni anglatadigan "choy" so'zini ko'p ishlatamiz. Masalan, "bir piyola choy ustida suhbat", "choyga marhamat", "kelinning qo'lidan choy"... deb umumiy ovqatlanishni nazarda tutishimiz mumkin. Chindan-da, choysiz kunimizni tasavvur qilolmaymiz. Shu ichimlik bilan bog'liq tarixiy voqea – "Boston choyxo'rligi" ham ko'pchilikka ma'lum.

Bo'ston choyxo'rligi (inglizcha: *Boston Tea Party*) – 1773-yil 16 dekabrda Amerika mustamlakasi Massachusetts shtatining Boston shahrida Sons of Liberty tomonidan uyushtirilgan siyosiy va savdo norozilik harakati. Harakatning asosiy sababi ham 1773-yil 10-mayda qabul qilingan choy to'g'risidagi qonun bo'lib, u Sharqiy Hindiston kompaniyasiga Xitoydan olib kelingan choyni Amerika koloniyalarida faqat Townshend qonunlari asosida belgilangan soliqlargina to'lab sotishga ruxsat bergan. Sons of Liberty Townshend qonunlaridagi soliqlarni o'z huquqlarining buzilishi deb bilib, ularga qat'iy qarshilik ko'rsatishgan. Shu sababli, ular o'z

noroziliklarini bildirgan holda, ba'zilar tub amerikaliklar kabi kiyinib, Sharqiy Hindiston kompaniyasi tomonidan jo'natilgan choy yuklamasini yo'q qilishgan (Smith, 2012). Choyxo'rlik davomida umumiy 45 tonnadan ko'proq choy suvga g'arq bo'ladi. Ularning bahosi bugungi kunda deyarli bir million dollarga teng keladi. Tarixga "Boston choyxo'rliqi" nomi bilan kirgan ushbu voqea amerikalik kolonistlarning Buyuk Britaniyaga qarshi ochiqdan-ochiq norozilik harakati edi. Norozilik aksiyasi koloniya aholisi tomonidan qo'llab-quvvatlanadi va ingliz choyining boykot qilinishi tarixdagi eng katta qarshilik harakatlaridan biri bo'lib qoladi.

Choy marosimi mehmondo'stlikning elementi sifatida hayotda muhim o'rin tutadi. Va choy tayyorlash hamda uni mehmonlarga ulashish mezbonning mutlaq vakolati hisoblanadi. O'zbek madaniyatida mehmonga tortishdan oldin, issiq choy idishda 3 marta chayqatiladi va to'rtinchi marta toza piyolada mehmonga uzatiladi. Bunga ajablanmaslik kerak. Birinchidan, buning natijasida choy yanada mazaliroq bo'ladi, mehmonga choy quyilgan toza idish esa chuqur hurmat va munosabatlar pokligining belgisidir.

Tadqiqotchi G. Odilova o'zbek gastronomik olamning lisoniy manzarasida "choy"ning konseptosferasini ishlab chiqadi. Unda *choy* – huzur baxsh etuvchi ichimlik, *choy ichish jarayoni* – kommunikativ muloqotga kirishish, yaqinlik, iliqlik vositasi, *choy* – hazm qilish vositasi deb izohlaydi. Choynakni dasturxonga keltirib qo'yishdan tortib choy qaytarish va uzatish adresantning ruhiy holati, kayfiyati va retsepiyentga munosabati haqida ham to'liq tasavvur berishi mumkin. Binobarin, o'zbek madaniyatida choynakni dasturxonga qattiq ovoz chiqarib, "do'q" etib qo'yish, piyolaga choyni shovqin chiqarib, "shopirib" qo'yish, to'ldirib quyish kabilar mezbonning mehmonni xushlamasligini anglatadi (Odilova, 2020).

Choy deganda rus an'anasida achchiq damlangan qora, yapon va ingliz choyxo'rligida ko'k choy nazarda tutiladi. O'zbek

madaniyatida esa, mazkur freym yadrosi hududiy jihatdan farqlanadi. "Choyxo'rlik" deganda toshkentliklar "qora", Qashqadaryo, Surxondaryo hududlarida istiqomat qiluvchilar "ko'k" choyni tasavvur qiladilar. Sababi, iqlim sharoitlaridan kelib chiqib, O'zbekistonda ikki xil choy iste'mol qilinadi. Qashqadaryo, Surxondaryoda, asosan, quruq issiq iqlim va ko'p miqdorda yog'li va go'shtli taomlar iste'mol qilinishi natijasida qon bosimi ko'tarilishi, yurak-qon tomir kasalliklari ko'p uchraydi. Shu sababdan, mazkur hududlarda yashovchi kishilar, asosan, ko'k choy iste'mol qiladilar va kiyik o'tli choy ham ichadilar.

Choy ichish marosimidan turli xalqlar har xil maqsadlarda foydalanadilar. Masalan, inglizlarda choy ichish kun davomida 5-6-martagacha bo'ladi. Kunduzgi choy ichishlar qisqa muddatli charchoq chiqarish uchun ishxona va ofislarda o'tkaziladi va mazkur holatga idora rahbariyati tomonidan e'tiroz bildirilmaydi. Sababi, bu xodimlar bilan rahbariyat o'rtasidagi sog'lom muhitning buzilishiga olib keladi, deb hisoblashadi. Kechki choy ichish esa oila va do'stlar davrasida, turli xil yangiliklardan xabardor bo'lish, kun qanday o'tganligi muhokamasi va hokazolarni o'z ichiga oladi. O'zbek madaniyatida "choy ichish" hamma ish tugaganda, oyoqni uzatib charchoq chiqarish, gurunglashish, ayollar o'rtasidagi choy ichishlar "g'iybatlashish", "dardlashish" kabilarni anglatadi. Shu sababdan ish vaqti idorada tushlik payti bo'lmasa, choynakdan choy quyib, davra bo'lib choy ichib o'tirish ma'qullanmaydigan holat hisoblanadi. Biroq ish stoli ustida turgan bir finjon yoki piyoladagi issiq choy odatiy holat hisoblanadi. Choy ichishdan maqsad doim ham chanqoqni qondirish bo'lmaydi. Masalan, ingliz madaniyatida do'stlari yoki yaqin tanishlarni uyga choyga taklif qilib, ingliz choyxo'rligi an'analarini namoyish etish bu o'sha oilaning aslzoda, ingliz qadriyatlariga sodiq ekanligini ko'rsatish uchun ham qilinishi mumkin. Sababi, ingliz choy ichish marosimining ba'zi qat'iy qonuniyatlari dasturxon va sochiqlarning gulsiz oq rangda bo'lishi, choynak turgan patnisni

o'ng tarafdin ushlab choy quyish, finjonni ushlaganda ko'rsatgich barmoq bilan ilgakdan tutib turish hamda qolgan barmoqlarning qayirilgan holatda turishi kabilar asl ingliz choy ichish an'anasiga rioya etish elementlari sanaladi. Angliyada har qancha paketli choy ishlab chiqarilmasin o'z qadriyatlariga rioya qiluvchi konservativ haqiqiy inglizlar bargli choy iste'mol qilishadi (Londonmania.ru/stories/tea-party). O'zbek madaniyatida ham, choyxo'rlikdan maqsad turlicha bo'lishi mumkin: chanqoq bosish, ovqatlanish, suhbatlashish, muhim masalani muhokama qilish, yarashib olish va hokazo. O'zbek tilidagi "yur, choy ichamiz", "uyga kir,

choy qilib beraman", "choy-poying yo'qmi?" kabi ibora va gaplarda asosiy maqsad chanqoq bosish emas, balki ovqatlanish hisoblanadi. Shu sabab "choy ichish" freymida "harakat maqsadi" slotining kiritilishi maqsadga muvofiq.

O'zbek va ingliz tilshunosliklarida "choy" tushunchasi ilqlik hissi bilan bog'liq bo'lgan oilaviy va do'stona uchrashuvlar, tinchlik va tartib ramzi hamdir. *"Tea over and the tray removed, she again summoned us to the fire; we sat one on each side of her, and now a conversation followed between her and Helen, which it was indeed a privilege to be admitted to hear"*.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Гончарова, Н.Н. (2012). Языковая картина мира как объект лингвистического описание. Известия Тульского государственного университета. Гуманитарные науки.
2. Гумилев, Л.Н. (2001). Этногенез и биосфера земли. Москва: Логос.
3. Державецкая, И.А. (2011). Ученые записки Таврического национального университета им. В.И. Вернадского. Серия «Филология. Социальные коммуникации», 26(65), 1, 466-470.
4. Mahmudov, N. (2012). Tilning mukammal tadqiq yo'llarini izlab. O'zbek tili va adabiyoti, (5).
5. Michael Ferber. (1999). Dictionary of literary symbols. New York: Cambridge University Press.
6. Odilova, G.K. (2020). Glyuttonik diskurs asoslari. Toshkent: Mumtoz so'z.
7. Олянич, А.В. (2004). Презентационная теория дискурса. Монография. Волгоград: Парадигма.
8. Петренко, Е.Е. (2008). Фразеологическая картина мира в художественных текстах для младших школьников: Дисс. канд. филол. наук. Тюменский государственный университет.
9. Пименова, М.В. (2011). Концептуальная картина мира. Языковая картина мира: Учебная пос. (3-е доп.). Санкт-Петербург: СПбГУ.
10. Попова, З.Д., & Стернин, И.А. (2007). Язык и национальная картина мира. Воронеж: Истоки.
11. Самаркина, И.В. (2011). Политическая картина мира: теоретическая модель и опыт эмпирического исследования. Краснодар: КубГУ.
12. Степин, В.С., & Кузнецова, Л.Ф. (1994). Научная картина мира в культуре техногенной цивилизации. Москва.
13. Smith, G. (2012). The Boston tea party. The institute for humane studies and libertarianism.org.
14. Черкашина, Е.В. (2011). Национальная картина мира и её репрезентация в повестях Н. В. Гоголя «Майская ночь, или утопленница», «Страшная месть». В мире науки и

искусства: вопросы филологии, искусствоведения и культурологии: сб. ст. по матер. V
междунар. науч.-практ. конф. Новосибирск: СибАК.

15. Shirinova, R.X. (2017). Olam milliy manzarasining badiiy tarjimada qayta yaratilishi.
Filologiya fanlari doktori diss., avtoreferat, Toshkent.